



UO‘K: 94:378

**OLIV TA'LIMGA QABUL JARAYONLARIDA XORIJIY TAJRIBANING QO'LLANILISHI**  
**ПРИМЕНЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПРИ ПРИЕМЕ В ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ**  
**APPLICATION OF FOREIGN EXPERIENCE IN ADMISSION PROCESSES TO HIGHER EDUCATION**

**Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich** 

University of Business and Science Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlarida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilingan. Mustaqillikning dastlabki yillarida qabul imtihonlarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli oliy ta'limga qabulda muammolar kuzatildi. 2017-yildan keyingi davrda qabul imtihonlarida shaffoflikni ta'minlash borasida erishilgan yutuqlar haqida ham ma'lumot berilgan. Davlat Test Markazi (hozirgi Bilim va malakalarni baholash agentligi)ning faoliyati bilan bog'liq o'zgarishlar ham o'rganilgan. Ayniqsa, kirish imtihonlarda "majburiy" fanlar bloki joriy etilishi, chet tillari va fanlardan sertifikatlash tizimlari, Rash metodi masalalariga to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, so'nggi yillarda xorijiy tajribani o'rgangan holda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning mohiyati ham tushuntirilgan. Xalqaro miqyosda mavjud qabul jarayonlari bilan bog'liq mavjud tizimlar o'rganilib, ularni O'zbekistonda joriy qilish imkoniyatlari ham tahlil qilingan. Xorij tajribasida ayrim imtihon turlariga o'xshash tizimlarni yaratish bo'yicha ham tavsiyalar berilgan. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarda yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolar ham muhokama qilingan.

**Аннотация**

В данной статье анализируются реформы, реализованные в процессах приема в высшие учебные заведения Республики Узбекистан. В первые годы независимости были проблемы с поступлением в высшие учебные заведения из-за недостатков на вступительных экзаменах. В период после 2017 года также была представлена информация о прогрессе в обеспечении прозрачности вступительных экзаменов. Также были изучены изменения, связанные с деятельностью Государственного центра тестирования (ныне Агентство по оценке знаний и навыков). В частности, обсуждались введение «обязательного» предметного блока на вступительных экзаменах, системы аттестации по иностранным языкам и предметам, метод Раша. Кроме того, поясняется суть изменений, реализованных в последние годы на основе изучения зарубежного опыта. Были изучены существующие системы, связанные с существующими процессами приема на международном уровне, а также проанализированы возможности их внедрения в Узбекистане. Также даются рекомендации по созданию систем, аналогичных некоторым видам экзаменов в зарубежном опыте. Также были обсуждены недостатки и проблемы реформ, реализуемых в этой сфере.

**Abstract**

This article analyzes the reforms implemented in the processes of admission to higher education institutions in the Republic of Uzbekistan. In the early years of independence, there were problems with admission to higher education due to shortcomings in the entrance exams. In the period after 2017, information was also provided about the progress made in ensuring transparency in the entrance exams. Changes related to the activity of the State Test Center (now the Knowledge and Skills Assessment Agency) were also studied. In particular, the introduction of the "compulsory" subject block in the entrance exams, certification systems for foreign languages and subjects, and the Rasch method were discussed. In addition, the essence of the changes implemented in recent years based on the study of foreign experience is also explained. The existing systems related to the existing admission processes at the international level were studied, and the possibilities of their implementation in Uzbekistan were also analyzed. Recommendations are also made for creating systems similar to some types of exams in foreign experience. The shortcomings and problems of the reforms implemented in this area were also discussed.

**Kalit so'zlar:** kirish imtihonlari, qabul jarayonlari, Davlat Test Markazi, Bilim va malakalarni baholash agentligi, test, sertifikat, "majburiy" fanlar, Rash metodi

**Ключевые слова:** вступительные экзамены, процедура поступления, Государственный тестовый центр, Агентство по оценке знаний и навыков, тест, сертификат, «обязательные» предметы, метод Раш

**Key words:** entrance exams, admission processes, State Test Center, Knowledge and Skills Assessment Agency, test, certificate, "compulsory" subjects, Rasch method

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi so'nggi yillarda hukumat e'tiborida bo'lgan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim va unga qabul jarayonlarida ko'plab islohotlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Oliy ta'limga qabul bilan bog'liq jarayonlarda xalqaro tajribaning o'rganilishi va qo'llanilishi bu sohadagi ko'plab muammolarni bartaraf etganini ko'rish mumkin. Ushbu yangiliklarni qanday muvaffaqiyat keltirgani va ularni joriy qilishda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilganini tahlil etish bu tizimda keyingi qadamlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu mavzuni o'rganishda, avvalo, mustaqillikning dastlabki yillaridagi test sinovi orqali oliy ta'limga qabul jarayonlarini yoritgan Narzulla Jo'rayevning tarixga oid ilmiy izlanishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi (Jo'rayev, 2013).

O'zbekistonda joriy qilinayotgan xorij tajribasi bilan bog'liq o'zgarishlarning mazmunini tahlil qilishda chet el mualliflarining tadqiqotlari, ilmiy maqolalari yordam berdi. Jumladan, testologiya qoidalari va u bilan bog'liq tushunchalar Livingston (2018) ning tadqiqoti orqali o'rganildi. 2024-yildan joriy qilinayotgan test natijalarini hisoblashdagi Rash metodi bir guruh xorijiy mualliflarning maqolalari orqali tahlil etildi (Sumintono, 2017; Omar Karlin va Sayaka Karlin, 2018).

Kembrij universitetining xalqaro malaka sertifikatlar haqidagi ma'lumotlar Kevin Ebenezer (2017) ning tadqiqoti orqali o'rganildi. AQSHdagi ACT va SAT test sinovlari haqida ham amerikalik mualliflarning ilmiy ishlari orqali ma'lumotlar berildi (Stemler, 2012; Kamara va Uestrik, 2017). Xalqaro miqyosda universitetlarga qabulda qanday tizimlar mavjudligi Aterton(2021)ning ilmiy tadqiqoti orqali tahlil etildi.

Mavzuni o'rganishda, avvalo, rasmiy hujjatlarga murojaat qilinib, ular asosida tadqiqot amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekistonda oliy ta'limga qabul jarayonlariga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari o'rganildi. Ushbu hujjatlarda joriy qilinishi belgilangan xalqaro tajriba bilan bog'liq o'zgarishlarni xorijiy davlatlardagi samarasi tahlil qilindi. Xalqaro miqyosdagi tajriba qo'llanilishi uchun shart-sharoitlar, uning xorij davlatlaridagi muvaffaqiyati, joriy qilish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham o'rganildi. Dunyo davlatlarida oliy ta'lim muassasalariga qabulda qo'llaniladigan tizimlar o'rganilib, ulardan O'zbekistonda allaqachon qo'llanilayotgan tartibi muhokama etildi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Oliy ta'lim davlat hayotining turli tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlab beradigan tizim hisoblanadi. Shuning uchun ham oliy ta'lim talabalari safiga har tomonlama munosiblarni tanlab olish muhim vazifa hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq oliy ta'lim tizimida chet el tajribasi o'rganila boshlandi. Bundan maqsad zamon talablariga javob beradigan va mamlakatimiz rivoji uchun xizmat qiladigan kuchli mutaxassislarni tayyorlash edi. Xususan, AQSh, Turkiya, Hindiston va Germaniyadagi oliy bilimgothlar ishi o'rganilishi natijasida oliy o'quv yurtlariga qabul qilishning yangi tizimi vujudga keldi. Ya'ni, test sinovlari orqali oliy o'quv yurtlariga qabul qilish joriy etildi [1]. Ushbu kirish test sinovlarini o'tkazishni tashkillashtirish uchun 1994-yilda Davlat Test Markazi (hozirgi Bilim va malakalarni baholash agentligi) tashkil etildi [2]. Ushbu tashkilot kirish imtihonlari testlarini shakllantirish, imtihonlarni tashkil etish va shu kabi boshqa vazifalarga mas'ul etib tayinlandi. Lekin kirish imtihonlarini tashkil etishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar ayrim nomunosib abituriyentlarning talaba sifatida saralanishiga olib keldi.

2017-yildan keyingi davrda avvalgi 25 yillik davrda yo'lga qo'yilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish hamda jahon tajribasini o'rgangan holda yangiliklar kiritish masalasiga e'tibor qaratila boshlandi. Test materiallarini tayyorlash, bakalavriat yo'nalishlariga mos fanlar majmualarini tasdiqlash, test sinovlari jarayonlarini tashkil etish va boshqa masalalarda ko'plab yangiliklar amalga oshirilganini ta'kidlab o'tish joiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrda "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida kirish test sinovlarini tashkillashtirish va uning natijalarini e'lon qilish bilan bog'liq muammolar islohotlar o'tkazishni zaruriyatga aylantirgani ta'kidlandi. Ushbu qarorda belgilangan eng muhim vazifalardan biri test sinovlari natijasini bir hafta muddatda e'lon qilish hamda test sinovlarini katta sig'imli bino va pavilonlarda videokuzatuv

vositalari bilan ta'minlangan holda o'tkazish bo'ldi [3]. Bunga qadar mavjud bo'lgan imtihonlarning bir kunda (1-avgust) turli binolarda videokuzatuvlarsiz o'tkazilishi tartibi nazoratni murakkablashtirardi hamda ayrim qallobliklarga yo'l ochib berardi. Xususan, 2018-yilga qadar oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlari 24 mingdan ziyod auditoriyada o'tar va ularni nazorat qilish uchun ming bo'lakka bo'linishga to'g'ri kelardi [4]. Test sinovlarining bu kabi katta sig'imli inshootlarda videokuzatuv asosida tashkil etilishi shaffoflikni ta'minlashga katta hissa qo'shganini ta'kidlab o'tish kerak. Xorijiy tajribada ham kirish imtihonlari shaffof o'tkazilishi masalasiga e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonda kirish imtihonlarida shaxsni idenfikatsiya qilish qurilmalari asosida tekshirish, imtihon jarayonlarini Internet tarmog'i orqali onlayn kuzatish imkoniyatini berilishi natijasida oldingi yillarga nisbatan nazorat kuchaytirildi va shaffoflik ta'minlandi. Test natijalari test sinovi o'tgan kunning ertasigayoq, tanlov natijalari esa avvalgi yillardagidek 15-18 kunda emas, balki bir haftada e'lon qilinadigan bo'ldi. Lekin qabul jarayonlari bilan bog'liq islohotlar bu bilan yakuniga yetgani yo'q. Aksincha, chet el tajribasi o'rganilgan holda islohotlar davom ettirildi. 2019-yil 14-mayda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarorida qabul jarayonlarida amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berildi. Jumladan, 2019/2020 o'quv yilidan boshlab abituriyentlarga test sinovlari o'tkaziladigan fanlar majmuasiga mos ravishda uchtagacha bakalavriat yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etish huquqining beriladigan bo'ldi [5]. Hozirgi kunda esa abituriyentlar 5 tagacha ta'lim yo'nalishi tanlash imkoniga ega bo'lmoqda [6]. Bu ayrim oliy o'quv yurtlaridagi yo'nalishlaridagi raqobat tufayli talaba bo'la olmay qolib ketayotgan va aslida bilimi boshqa oliy o'quv yurtidagi turdosh yo'nalishda o'qish uchun yetarli bo'lgan yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Shuningdek, qarordagi yana bir yangilik 2021/2022 o'quv yilidan boshlab test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasini ikki bo'limga ajratib, birinchi bo'limga barcha test topshiruvchilar uchun majburiy uchta fan — ona tili (o'zbek, rus yoki qoraqalpoq tili), matematika va O'zbekiston tarixi, ikkinchi bo'limga abituriyent tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos ikkita fanni kiritish vazifasi qo'yildi [7]. Ushbu yangilikni joriy etishda ko'plab davlatlarning oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonlaridagi tajribasi hisobga olindi. "Majburiy fanlar" blokidagi fanlar xalqaro tajribada kirish imtihonlarida keng qo'llaniladigan fanlardan tanlab olindi. O'zi yashayotgan davlat tili va tarixini bilish, albatta, har bir oliy ma'lumotli bo'lishni istaydigan da'vogarlariga qo'yiladigan asosli talabdir. Matematika esa mantiqiy fikrlashni mustahkamlaydi va bu fanni boshlang'ich darajada bilish talabning o'quv faoliyatida kerak bo'ladigan ko'nikma hisoblanadi.

Xorij tajribasida ham fanlar blokining ajratilishiga misollar topish mumkin. Jumladan, Turkiya "Yuksekköğretim Kurumları Sınavı (YKS)" (Oliy ta'limga asos qurish imtihoni) deb ataluvchi test sinovini abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga kirishda topshiradilar. U uch qismdan iborat: Temel Yeterlilik Testi (Boshlang'ich malaka testi), Alan Yeterlilik Testi (Soha malaka testi) va Yabancı Dil Testi (Xorijiy til testi). Temel Yeterlilik testi boshlang'ich bilimlarni sinov testi hisoblanadi hamda u turk tili, ijtimoiy bilimlar (diniy madaniyat, axloq bilimi, falsafa), boshlang'ich matematika va fan bilimlarini o'z ichiga oladi. Ushbu bo'lim jami 125 ta savoldan iborat bo'lib, 165 daqiqa vaqt ajratiladi.

Alan Yeterlilik Testi asosan mutaxassislikka yo'naltirilgan fanlardan tashkil topgan bo'lib, unga turk tili va adabiyoti, ijtimoiy bilimlar, matematika va fan bilimlari kiradi. Ushbu test sinovi 166 ta savoldan tarkib topgan bo'lib, 180 daqiqa vaqt ajratiladi. Yabancı dil testi ham Alan Yeterlilik Testi bilan bir kunda o'tkazilib, xorijiy til bo'yicha 80 ta savoldan tarkib topgan. Ushbu testni ishlagani esa 120 daqiqa vaqt beriladi [8].

O'zbekistonda esa Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi Qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra, har 30 ta test topshirg'iga 1 soat vaqt ajratiladi [9]. Shundan kelib chiqqan holda 2023/2024-o'quv yili uchun 90 ta test topshiriqlarini bajarish uchun 3 soat vaqt ajratilgan. "Majburiy fanlar" blokidagi 3 ta fandan 10 tadan 30 ta savol, 2 ta mutaxassislik fani esa 30 tadan 60 ta savoldan tarkib topgan. Agar abituriyentda qaysidir mutaxassislik fanidan sertifikati bo'lsa, u o'sha fandan test sinovidan ozod etilgani hisobiga unga 1 soat kam vaqt beriladi.

Turkiya tajribasidagi va ayni paytda qo'llanilayotgan test tizimida O'zbekistonda mavjud tizimdan farqli jihati test topshiriqlari soni ko'pligida ekanligini ko'rish mumkin. Xalqaro tajribada ham test savollarining ko'proq bo'lishi uning natijasini ishonchliligini oshirishi haqidagi qarashlar

## TARIX

mavjud. Chunki test savollarining ko'proq bo'lishi uning fan bo'yicha mavzularni qamrab olish darajasini oshiradi. Testning hajmi kattaroq bo'lishi u o'z ichiga oladigan savol turlarini kengroq bo'lishini ta'minlaydi [10]. Garchi O'zbekistonda kirish imtihonlarida fanlarning "majburiy" va "mutaxassislik" fanlariga ajratilgan holda xorij tajribasi joriy qilingan bo'lsa-da, test topshiriqlari soni ozligi undan ko'zlangan maqsadga to'la erishishga to'sqinlik qiladi. Masalan, "majburiy fanlar" blokidagi ona tili fanidan mavjud 10 ta savol barcha mavzularni qamrab olish xususiyatiga ega emas. Yoki O'zbekiston tarixining qadimgi davrda mustaqillikkacha bo'lgan davri bo'yicha abituriyentning bilimini 10 ta savol orqali sinaganda ayrim muhim mavzulardan savollar tushmay qolishi ham mumkin. Vaholanki, Turkiyada bizdagi "majburiy fanlar" blokiga mos tushadigan Temel Yeterlilik Testida turk tilidan 40 ta savol mavjud [11]. Savol qancha kam bo'lsa, mavzu qamrovi ham shuncha kam bo'ladi, oqibatda abituriyentning haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

O'zbekiston hukumati tomonidan oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlarida xalqaro tajriba asosida kiritgan yangiliklaridan yana biri fanlarni sertifikatlash tizimi joriy qilinishi bo'ldi. Dastlab xorijiy tillar bo'yicha sertifikatlar tan olinishi borasida sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-yildan boshlab DTM tomonidan beriladigan chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi davlat namunasidagi B1 va undan yuqori daraja malaka sertifikatiga ega abituriyentlarga chet tili fanidan maksimal ball berishi belgilandi [12]. Keyinchalik xalqaro sertifikatlar (IELTS, TOEFL va boshqalar) ham tan olinadigan bo'ldi. Bundan tashqari Milliy baholash testidagi ballariga mos proporsional tarzda ball berish joriy qilindi. Asta-sekin tillarni sertifikatlash tizimi yo'lga qo'yib olingach, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi qaroriga binoan umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi joriy qilinadigan bo'ldi. Unga ko'ra, 2020-yil 1-dekabrda boshlab bosqichma-bosqich bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos fanlar majmuasidagi umumta'lim fanlaridan (matematika, ona tili va adabiyoti, kimyo, biologiya, fizika, geografiya va tarix) ham sertifikat beruvchi imtihonlar joriy qilindi [13]. Ushbu qarorga ilova qilingan nizomga 2024-yil 10-yanvarda kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, test natijalari xalqaro metodika – Rash metodi asosida hisoblanadi. Ya'ni talabgorlarga A+, A, B+, B, C+, C darajali sertifikatlar beriladi. A+ va A daraja egalariga kirish imtihonlarida maksimal ball berilsa, qolgan darajalarga sertifikatdagi umumiy ballga nisbatan foiz asosida proporsional ball beriladi [14]. Bu metod 1960-yillarda Jorj Rash tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quvchining qobiliyatini tekshiradigan test natijasidan olingan xom ma'lumotni (to'g'ri va noto'g'ri javoblar soni) matematik formula asosida teng interval shkalasiga solishni ishlab chiqqan. Bu interval ma'lumotini kiritish orqali Rash o'quvchi qobiliyati va savol murakkabligi o'rtasidagi munosabat asosida mantiqiy baholash modelini ishlab chiqqan [15]. Klassik test nazariyasida talabgorlar har bir to'g'ri javob uchun ball olsa, Rash modelida har bir savolga maxsus qiymat beriladi. Masalan, oson savolga 0.75 ball berilsa, qiyin savolga 3.40 ball berilishi mumkin [16]. Bu metod talabalarning qobiliyatini yanada aniqroq tekshirish imkonini beradi. Bundan tashqari bu model test savollari shakllantirishning sifati oshishiga hissa qo'shadi. Mana shu xususiyatlari tufayli ushbu metodning joriy qilinishi fanlar bo'yicha sertifikat beruvchi imtihonlardagi samaradorlikni oshirmoqda.

Umumta'lim fanlaridan imtihonlar yilda bir necha marotaba o'tkazilishi abituriyentlarga qaysidir fandan sertifikat olish orqali kirish imtihonlariga qadar qolgan boshqa fanlardan tayyorlanish imkoniyatini berdi. Natijada endi abituriyentlar avgust oyidagi kirish imtihonlariga qadar ayrim fanlardan sertifikatga ega bo'lishi hamda agar barcha fanlardan sertifikatga ega bo'lsa, umummilliy kirish imtihonlarida qatnashmasdan muddatdan avval talaba bo'lishi ham mumkin.

O'zbekistonda esa Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan 15 ta chet tilidan (ingliz, nemis, fransuz, ispan, italyan, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors, urdu, pushtu, dariy, hindiy) test sinovlari o'tkazilmoqda. Ushbu sohada talabgorlarga qulaylik yaratish maqsadida chet tilidan har bir daraja (B1, B2, C1) uchun alohida imtihon o'tkazish o'rniga ko'p darajali (Multi-level) test tizimi joriy etildi [17]. Ushbu tizim joriy qilinishi talabgorlarning imtihon natijasida o'z bilim doirasida tegishli darajani qo'lga kiritish imkonini berdi. Bu xalqaro tan olinadigan IELTS imtihonida ham mavjud xususiyat hisoblanadi.

Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish bo'yicha jahon tajribasi o'rganilsa, bu borada O'zbekistonda ham keyinchalik joriy qilish mumkin bo'lgan jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya) da universitetlarning har birini o'z qabul

mezonlari mavjud. Ya'ni, bu davlatda O'zbekiston yoki Turkiyadagi kabi davlat miqyosida kirish imtihonlarini o'tkazish tushunchasi mavjud emas. Aksincha, qirollikda butun davlat miqyosida tan olinadigan, asosan Cambridge Assessment International Education tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan imtihonlarning sertifikatlari ko'pgina universitetlar tomonidan talab qilinadi. Masalan, tibbiyot oliygohlarida Biomedical Admission Tests (BMAT) yoki The UK Clinical Aptitude Test (UKCAT) natijalari talab qilinishi mumkin. The Law National Aptitude Test (LNAT) yuridik yo'nalishdagi oliygohlarga kirish uchun kerak bo'ladi [18].

AQShda esa bakalavriatga qabul qilishda milliy kirish testlari bo'lgan ACT (American College Testing) va SAT (Scholastic Aptitude Test – Ilmiy qobiliyat testi) natijalari ko'plab oliygohlar tomonidan talab qilinadi. ACT sinovi ingliz tili, matematika, o'qish va tabiiy fanlardan test sinovi va bitta ixtiyoriy insho yozishni o'z ichiga oladi. To'rtta fandan test sinovi uchun 2 soat 55 daqiqa ajratiladi, agar insho yozish qo'shilsa yana 30 daqiqa vaqt beriladi. SATda esa 3 soat vaqt beriladi, agar insho yozish qo'shilsa 50 daqiqa qo'shimcha vaqt beriladi [19]. SAT aslida biror fandan mavjud bilimlarni emas, balki ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan qobiliyatni tekshirishni ko'zlangan edi. Shunga qaramay, vaqtlar o'tishi bilan bu nafaqat o'rganishga nisbatan qobiliyat, balki ayni vaqtdagi mavjud qobiliyat va biror sohadagi aniq natijalarni tekshirishini aniq aytish qiyin bo'lib qoldi [20]. O'zbekiston oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ham SATga o'xshash test sinovini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi. Chunki hozirda mavjud test tizimi, asosan, mavjud bilim va ko'nikmalarni tekshirishga yo'naltirilgan. Natijada aslida o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan abituriyentlar ham talabalikka tavsiya qilinmay qolishi mumkin. Kuchli mantiqiy va tanqidiy fikrlash, turli vaziyatlarda qaror qabul qila olish, kreativlik, mushohada yuritish kabi qobiliyatlarga ega abituriyent tanlagan yo'nalishi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmasa ham unda kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lib yetishish potentsiali mavjud bo'ladi.

Test sinovlarida faqat nazariy bilimlar emas, balki yuqorida sanab o'tilgan abituriyentlarning potentsialini aniqlashga yordam beruvchi topshiriqlarni shakllantirish vazifasi 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan Prezident qarorida ham belgilangan. Unga ko'ra, 2021-yil 1-yanvardan boshlab abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va misollarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, kompetensiyaga asoslangan test topshiriqlari ishlab chiqish vazifasi qo'yildi [21]. Bundan kirish imtihonlari uchun test topshiriqlarini tuzishda abituriyentning oliy ta'limda tahsil olishga nisbatan qobiliyatini tekshirishni ham hisobga olish topshirig'i berildi. Bu kabi islohotlarning amalga oshirilishi O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribaning qo'llanilishi va yaqin yillarda natijalarga erishishni ta'minlaydi.

OECD (IHTT – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ga a'zo davlatlarda universitetlarga qabul qilishda 4 xil turdagi imtihonlarni ko'rishimiz mumkin:

1) Matura/Abitur/Bac – bu maktabni, ya'ni umumiy o'rta ta'limni yakunlayotgan o'quvchilardan olinadigan imtihon bo'lib, bu imtihon natijalari oliy o'quv yurtiga kirishda tan olinadi. Bu ko'pgina Yevropa davlatlarida qo'llaniladigan tizim bo'lib, imtihon olinadigan fanlar soni 5 tadan (masalan, Germaniya) 8 tagacha (masalan, Italiya) bo'lishi mumkin.

2) Milliy universitetlarga kirish imtihoni – bunday imtihonlar odatda mamlakatda yiliga bir marta o'tkazilib ommaviy axborot vositalar e'tiborini tortadi. Koreya Respublikasida esa Suneung deb ataluvchi 6 bo'limdan iborat 8 soatlik imtihon tashkil etiladi.

3) Universitetlarning kirish imtihoni – bu tizimda har bir universitet ba'zi yoki barcha fanlardan o'z imtihonini tashkil etadi. Yevropa universitetlarining ko'pchiligida maktabni tark etishda olingan sertifikat bilan bir qatorda o'z imtihonlarini ham tashkil etadi.

4) Har bir fanlardan alohida imtihon – bunday yondashuv Angliyada ko'p uchraydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Angliyada Kembrij xalqaro baholash tizimi imtihonlari sertifikatlari mamlakat bo'ylab tan olinadi [22].

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari tashkil etilishi umummilliy miqyosda, ya'ni mamlakat bo'ylab ma'lum bir davrda tashkil etiladigan 2-toifaga mos tushadi. Hozirgi kunda bakalavriatga kirish imtihonlari avgust oyida bir necha kun ichida maxsus katta sig'imli binolarda tashkil etilmoqda. Abituriyentlar o'zlari tanlagan 5 ta oliygoh yoki yo'nalishlar doirasida boshqa barcha da'vog'arlar bilan bellashadilar. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganlar

## TARIX

sentabr oyidan boshlab o'qishni boshlaydilar hamda Koreya Respublikasidagi kabi bunday kirish imtihonlari faqat yiliga bir marta bo'ladi.

So'nggi yillarda bakalavriatga qabul jarayonlarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida kirish imtihonlarini tashkil etishning boshqa turlariga ham e'tibor qaratilayotganini ko'rish mumkin. Jumladan, Angliyada keng qo'llaniladigan fanlar bo'yicha alohida imtihonlar tashkil etilishi va sertifikatlar berilishi mana shu xalqaro yondashuvga misol bo'la oladi. Endi abituriyentlar yilda bir necha marotaba o'tkaziladigan fanlar bo'yicha sertifikat beruvchi imtihonlarda qatnashib kerakli ballni to'plagan taqdirda avgustda bo'lib o'tadigan kirish imtihonida sertifikati mavjud fanlardan imtihon topshirmaydi. Agar sertifikat imtihonida 70 foiz va undan baland ball yig'gan bo'lsa, fan bo'yicha maksimal ball yoki undan pastroq yig'gan bo'lsa, sertifikatidagi ko'rsatkichga mos ravishda ball beriladi. Agar kirish imtihonlaridagi barcha fanlardan sertifikatga ega bo'lsa, abituriyent avgust oyida imtihon topshirishi shart bo'lmaydi. Faqatgina sertifikat ko'rsatkichidan o'zi qoniqmasa, imtihonga kirishi mumkin. Xorijiy tillardan esa ko'plab xalqaro imtihonlar (IELTS, TOEFL, TOPIK kabilari)ning natijalari ham tan olinadi.

O'zbekistonda xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallari va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va faoliyat ko'rsata boshlashi kirish imtihonlarga nisbatan yondashuvda har bir universitetning o'zi mustaqil hal qiladigan, ya'ni o'z kirish imtihonlariga ega bo'lgan tizim ham paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijiy oliygohlarning filiallari xalqaro til sertifikatlari bilan bir qatorda fanlar bo'yicha o'z kirish imtihonlarini tashkil etadi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalari ham o'z kirish imtihonlarini joriy qilgan.

O'zbekistonda maktabni tark etishda olinadigan yakuniy imtihonlarni natijasini oliy o'quv yurtiga kirishda ham tan olinishi borasida loyihalar rejalashtirilgan bo'lsa-da, bu tizim hali amalda joriy etilmadi. 2020-yil 6-noyabrdagi Prezident Farmonida belgilab qo'yilgan vazifalar qatorida 2024/2025-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablari bitiruvchilarining shahodatnomasi (diplom ilovasi)ga 11 yillik ta'limning so'nggi 6 yillik baholari o'rtacha ko'rsatkichi kiritilishi va ushbu ko'rsatkich oliy ta'lim tashkilotiga kirish imtihonlarida inobatga olinishi belgilangan edi [23]. Lekin farmonning ushbu bandi 2023-yil 26-maydagi Prezident Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan [24]. Bu farmonning bekor qilinishi maktablardagi mavjud baholash tizimiga nisbatan ishonchsizlikni ko'rsatib beradi. Bunday tizimni joriy qilish uchun, avvalo, maktab ta'limidagi islohotlarni chuqurlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirish kerak bo'ladi. Barcha maktablardagi o'qituvchilar saviyasi, sharoitlar, tartib-intizom va boshqa jihatlar standart holatga kelgandan keyin ushbu tizimni qo'llash adolatdan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari baholar o'rtacha ko'rsatkichining tan olinishi qisman korrupsiyaviy holatlarga yo'l ochib berishi ham mumkin. Ushbu tizimni joriy qilishga uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha bosqichlarda ko'zlangan maqsadga erishish orqali erishish mumkin.

O'zbekistonda bakalavriatga qabul jarayonlarida xorij tajribasini qo'llash ko'pgina muammolarni hal qilishda yordam berganini ta'kidlab o'tish joiz. Lekin ayni vaqtda bu tajribani qo'llashda ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Jumladan, fanlar blokidagi "majburiy" fanlarga ajratilayotgan savollar soni ozligi undan ko'zlangan asl maqsadga erishish imkonini bermayapti. Ona tili, O'zbekiston tarixi va matematika fanlaridan bor-yo'g'i 10 tadan savol berilishi mavzularni to'liq qamrab olmayapti hamda abituriyentlarning bu fanlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini susaytirmoqda.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda faqat mavjud bilimlar nuqtayi nazardan saralash ham ayrim qobiliyat egalarini talaba bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham AQSHdagi SATga o'xshash imtihonlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Bunday imtihon nomzodlarning fanni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyati, tanqidiy fikrlashi, kreativligi va turli vaziyatlarda qaror qilish qobiliyatini tekshiradi.

**XULOSA**

Yuqori keltirilgan mulohozalardan O'zbekistonda 2017-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlari va kirish imtihonlarini tashkil etishda ko'plab islohotlar amalga oshirilganligi haqida xulosa qilish mumkin. Bu islohotlar, asosan, xorij tajribasi asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, sohada muhim yangiliklar kiritilishiga sabab bo'ldi. Yutuqlar bilan bir qatorda tizimda xorij tajribasini joriy qilishda ayrim muammo va kamchiliklar borligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Bu muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Fanlar majmuasidagi “majburiy” fanlardan test savollarining ozligi abituriyentlarning bilimiga to’la baho berish imkoniyatini bermaydi hamda shu sababli ham “majburiy” fanlarni barcha abituriyentlar o’qimaydi;

2) Abituriyentlarning nazariy bilimlarini emas, keyingi bosqichdagi o’zlashtirishga nisbatan qobiliyatni baholovchi maxsus imtihon mavjud emasligi asl iste’dodlarni saralashda imkoniyatlarni cheklab qo’yadi;

3) Ta’limning oliy ta’limgacha bo’lgan bosqichlaridagi kamchiliklar, xususan, maktab ta’limiga nisbatan ishonchsizlik jahon tajribasidagi ayrim jihatlarni joriy qilishda to’sqinlik qildi. Masalan, 11 yillik ta’limning so’nggi 6 yilligidagi baholarning o’rtacha ko’rsatkichlarini oliy o’quv yurtlariga kirishda qabul qilish rejasi shu sababdan bekor qilindi.

Ushbu muammolar ko’rsatib turibdiki, oliy ta’lim muassasalariga qabul jarayonlarida erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan islohotlarni amalga oshirishda davom ettirish zarur. Bunda xalqaro tajribani o’rganish ko’plab muammolarga yechim topishda qo’l kelishi mumkin. Ushbu sohada tadqiqotlar olib borilishi mamlakat kelajagi uchun muhim bo’lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun munosib nomzodlarni tanlash yo’lida muhim qadam bo’lardi.

#### ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Jo’rayev, N. (2013). *Mustaqil O’zbekiston tarixi*. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (1994). “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to’g’risida”gi qarori / <https://lex.uz/docs/-726048>
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). “Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o’tkazish tartibini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori / <https://lex.uz/ru/docs/-3413551>
4. Mirzayev, F. (2023). Bilim va malakalarni baholash agentligi islohotlar yo’lida. *Ma’rifat*, 12(9411), 5.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori / <https://lex.uz/ru/docs/-4334802>
6. Mirzayev, F. (2023). Bilim va malakalarni baholash agentligi islohotlar yo’lida. *Ma’rifat*, 12(9411), 5.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori / <https://lex.uz/ru/docs/-4334802>
8. ÖLÇME, SEÇME VE YERLEŞTİRME MERKEZİ. (2020). Yükseköğretim Kurumları sinavi (YKS) kilavuzu.
9. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2018). “Oliy ta’lim muassasalariga o’qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qarori / <https://lex.uz/docs/-3646570>
10. Livingston, S. (2018). *Test reliability—Basic concepts* (Research Memorandum No. RM-18-01). Princeton, NJ: Educational Testing Service.
11. ÖLÇME, SEÇME VE YERLEŞTİRME MERKEZİ. (2020). Yükseköğretim Kurumları sinavi (YKS) kilavuzu.
12. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2017). “Oliy ta’lim muassasalariga o’qishga qabul qilish, talabalar o’qishini ko’chirish, qayta tiklash va o’qishdan chetlashtirish tartibi to’g’risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori / <https://lex.uz/docs/-3244181>
13. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to’g’risida”gi qarori <https://lex.uz/docs/-5044726?ONDATE=13.10.2020%2000#-5048686>
14. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). “Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlariga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi qarori / <https://lex.uz/docs/-6749986>
15. Sumintono, B. (2017). Rasch Model Measurement as Tools in Assessment for Learning . *International Conference on Education Innovation*, Surabaya.
16. Karlin, O. & Karlin, S. (2018). Making Better Tests with the Rasch Measurement Model. *Insight: A Journal of Scholarly Teaching*, Volume 13, 76-77.
17. Mirzayev, F. (2023). Bilim va malakalarni baholash agentligi islohotlar yo’lida. *Ma’rifat*, 12(9411), 5.
18. Ebenezer, K. (2017). *Applying to University with Cambridge International Qualifications*. Cambridge.
19. Camara, W. & Paul Westrick. (2017). *USA: Perspectives on Admissions & Admissions Testing*. New York.
20. Stemler, S. (2012). What Should University Admissions Tests Predict? *Educational Psychologist*, 47(1), 11.
21. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori <https://lex.uz/docs/-5085887>
22. Atherton, G. (2021). *University Admissions: The International Picture*. London.
23. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni / <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>
24. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni / <https://lex.uz/docs/-6476175>